

2023-yil – Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili

IJDODIY PARVOZ

2023-yil fevral № 2 (117)

dsmi.uz

nashriyot@dsmi.uz

t.me/dsmi_uz

O‘zbekiston davlat san‘at
va madaniyat institutining
ma’nnaviy-ma’rifiy, ilmiy,
ijtimoiy gazetasi



Alisher Navoiy
tavalludining
582 yilligiga

Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulru kelmadi,
Ko‘zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi.

Lahza-lahza chiqtimu chektim yo‘lida intizor,
Keldi jon og‘zimg‘ayu ul sho‘xi badxo‘ kelmadi.

Orazidek ondin erkanda gar etti ehtiyyot,
Ro‘zgorindek ham o‘lg‘anda qorang‘u kelmadi.

Ul parivash hajridinkim yig‘ladim devonavor,
Kimsa bormukim, anga ko‘rganda kulgu kelmadi.

Ko‘zlarindin necha su kelgay, deb o‘lturmang meni
Kim, bori qon erdi kelgan, bu kecha su kelmadi.

Tolibi sodiq topilmas, yo‘qsakim qo‘ydi qadam
Yo‘lg‘akim avval qadam, ma’shuqi o‘tru kelmadi.

Ey Navoiy, boda birla xurram et ko‘nglung uyin,
Ne uchunkim boda kelgan uyga qayg‘u kelmadi.



Zahiriddin Muhammad
Bobur tavalludining
540 yilligiga

* * *

O‘zni, ko‘ngul, aysh bilan tutmoq kerak,
Bizni unutqonni unutmoq kerak.

Aysh tarab gulbunig‘a suv berib,
G‘ussa niholini qurutmoq kerak.

Tiyra turur zuhd damidin ko‘ngul,
Ishq o‘ti birla yorutmoq kerak.

Har nimag‘a g‘am ema, g‘am ko‘p turur,
Aysh bila o‘zni unutmoq kerak.

Qo‘yma mashaqqat aro, Bobur, ko‘ngul,
O‘zni farog‘at bila tutmoq kerak.

* * *

Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen,
Sen shu‘lasen-u ul shu‘lag‘a men kuldurmen.
Nisbat yo‘qtur deb ijtinob aylamakim,
Shahmen elga, vale sangal quldurmen.

Navoiy asarlarining til xususiyatlari

Asrlar mobaynida til – milliy ma’naviyatimiz ko‘zgusi bo‘lib kelgan. Buni o‘zbek she’riyatining gultoji, deya e’tirof etilgan Mir Alisher Navoiy davridan to bugungacha o‘tkir qalam sohiblari yaratishgan badiiy ijod mahsullariga payvand milliy qadriyatlarimiz, ma’naviyatimiz rivoji misolida kuzatishimiz mumkin.

Turkiy tilning beqiyos imkoniyatlarini ko‘rsatishda, Alisher Navoiyning buyuk xizmatlarini alohida e’tirof etish joiz. Chinakam ma’nodagi so‘z mulkining sultonni Alisher Navoiyning so‘z va o‘tkir nutq, til va jamiyat borasidagi fikrlari alohida diqqatga molikdir. So‘z dahosiga daho so‘zchi sifatida adoqsiz ehtirom va injasezgi bilan munosabatda bo‘lgan adib o‘z asarlarining aksariyatida, xususan, muhtasham “Xamsa”ning

barcha dostonlari (alohida-alohida boblar)da, “Mahbub ul-qulub”, “Muhibamat ul-lug‘atayn”, “Nazm ul-javohir” va boshqa ko‘plab asarlarida so‘zning buyuk qadrati va nutq mahoratining xosiyatiga oid betakror fikrlarni bayon qilgan.

Shoir o‘z asarlarida o‘zbek tilining leksik boyliklaridan sinonimlar va omonimlardan, xalq maqollari va matalalaridan, frazeologik birliklardan keng foydalandi.

Odamlar
seni
bilmasa
ham, sen
odamlarni
bil.

Asqad
MUXTOR

O‘lani
muqaddas
bilmaganlar
uchun
muqaddas
narsaning
o‘zi yo‘q!
O‘tkir
HOSHIMOV

Agar baxtli
hayotga erishmoqchi
bo‘lsangiz, odamlarga
yoki narsalarga
emas, maqsadlarga
bog‘langan
bo‘lishingiz kerak.

Albert EYNSHTEYN

Munosabat

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2023-yil 25-yanvardagi “Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori o‘zbek ahlini, shuningdek, ulug‘ bobomizning serqirra ijodi va jo‘shqin hayoti bilan tanish barcha bashariyatni to‘lqinlantirib yubordi, desak yanglishmaymiz. Zero, bu jafokash shohning insoniyat tamadduniga qo‘sghan ulkan hissasini qancha e’tirof etsak-da, shuncha oz. Uning xizmatlari jahon xalqlari, ayniqsa, o‘zbek va hindistonliklar tomonidan cheksiz qadrlanadi.



Eldor SHERMONOV,
O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘shal Bobur...

To‘g‘ri, mamlakatimiz istiqlolga erishganidan so‘ng, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajodolarimizning xotirasini abadiylashtirish, ularning badiiy va ilmiy merosini o‘rganish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Shunga qaramay, Prezidentimiz qarori qamrovning kengligi, belgilanayotgan vazifalarining aniq va shu paytgacha e’tibor qaratilmagan jabhalarga yo‘naltirilganligi bilan boburshunoslikda yangi davrni boshlab beradi. Jumladan, qarorda bobomizning ilmiy ijodi, davlatchilik va sarkardalik faoliyatini keng o‘rganish masalasi alohida ta‘kidlab o‘tilgan. Bu borada xalqaro miyosda izlanishlar olib borish, yangidan-yangi ilmiy, badiiy-publisistik asarlar yaratish zarurligi ta‘kidlangan. Oliy ta’lim muassasalari uchun Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi davlat stipendiyasini ta’sis etilayotgani, o‘zbek, rus, ingliz tillarida faoliyat yuritadigan xalqaro boburshunoslik elektron platformasini yaratish haqidagi bandlar sohada yangi sahifani ochib beradi.

Boburiylar merosi mavzusi bilan yaqindan tanish bir inson sifatida, Prezidentimizning mazkur qarori mazmuni va mohiyatini chuqr anglatik va Yangi O‘zbekiston sharoitida xalqimizning buyuk o‘tmish merosini qayta tahlil qilish va u bilan butun xalqni tarbiyalashdek ulug‘vor vazifalar belgilab berilganidan benihoya zavqlandik. 1986-yil Dehlida ingliz olimi Valdemar Hansenning “Tovus toj yoki Mo‘g‘ullar imperiyasi qismati” nomli asarida: “Hindiston va uning sakkiz ming yillik tarixi bamisolai bir tovus bo‘lsa, o‘sha ko‘p ming yillik tarixdagi Boburiylar sulolasining 332 yillik hukmronlik davri ana shu tovusning gultojisidi”, deb yozgan edi. Bizningcha, Boburiylar sulolasiga yuksak ta‘rif va e’tirof ayni muddaodir.

Yurtboshimiz rahnamoligida olib borilayogan, buyuk bobolarimizning shon-u shuhratini, merosini tadqiq etish, o‘rganish va o‘sha tarix bilan xalqimizni tarbiyalash borasidagi islohotlarga yuksak baho berib, bir mutaxassis sifatida cheksiz minnatdorchilik bildiramiz. Yangi qarorga ko‘ra belgilangan Boburiylar saltanati tarixini tadqiq va targ‘ib etish bo‘yicha, “Bobur” nomli xalqaro ilmiy-tadqiqot institutini tashkil qilish ayni muddaodir, deb bilamiz.

Prezidentimizning mazkur qarorida ilgari surilgan ilmiy-metodologik, kontseptual fikr-g‘oyalalarining amalga oshirishda Bobur va Boburiylarning buyuk merosini, xalqimizning davlatchilik tarixini chuqr o‘rganish, tadqiq qilish va targ‘ib etishda, bu institut muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni vaqtida O‘zbekiston – Hindiston do’stligini, Andijon – Gujarat shaharlari o‘rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish borasida katta imkoniyatlar beradi. Bobur tavallud topgan Andijonda buyuk Boburiylar saltanati tarixi va madaniyatini o‘rganish va targ‘ib-tashviq etishda dunyo miyosida amalga oshirishda bo‘lajak xalqaro ilmiy-tadqiqot institut oldida turgan muhim ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-mafkuraviy vazifadir.

Navoiy asarlarining til xususiyatlari

1 Alisher Navoiy o'zbek tilida turli ma'no nozikliklarini ifodalovchi sinonimik juftlariga ega bo'lgan fe'llardan yuztasini "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida sanab o'tadi.

Bu yuzta fe'lning har biri o'zbek tilida sinonimlariga ega ekanligi ta'kidlab, ularning har biridan unumli foydalanadi. Masalan, Navoiy "yig'lamoq" fe'lining "yig'lamsinmoq", "ingramoq", "singramoq", "sigtamoq" kabi sinonimlarni samarali qo'llagan.

*Istasam davr ahlidin ishqingni
pinhon aylamak,
Kechalar goh ingramoqdur odatim,
goh singramoq.*

Alisher Navoiy o'zbek tili lug'atini boyitishda katta hissa qo'shgan ijodkordir. Buyuk daho o'z asarlarini ko'proq xalq tiliga xos yaratdi. Uning asarları butun dunyo xalqlari tomonidan yuqori baholanib, qayta-qayta nashr etilaveradi. "Muhokamat ul-lug'atayn"da aytishchicha, so'z go'yoki bir durdir, durning doimiy makoni dengiz tubi bo'lsa, so'zning muntazam makoni ko'ngildir. Sho'r shunday yozadi: "So'z durrining tafovuti mundish dog'i beg'oyatroy va martabasi mundin ham benihoyatrokdur. Andoqli, sharafidin o'lgan badang'a ruhi pok etar, kasifidin hayotliq tang'a zahri halok xosiyati zuhur etar".

Navoiy so'zni ajib, sehrli va qimmatbaho gavhar sifatida e'zozlaydi. Ko'pgina baytlarda, ayniqsa, "Xamsa", "Mahbub ul-qulub" singari asarlarida so'z, uning o'rni, inson hayotidagi ahamiyati, so'zlash madaniyat, so'zning badiiy ijoddagi mavqe'i, so'z odobi kabi tomonlar xususida mulohazalar bildiradi. "Nazm ul-javohir" ("Nazmlar javohiri") asarida sho'irning axloqiy qarashlari bayon etiladi. Alisher Navoiyning til va nutq, nutq odobi, nutqiy madaniyat, nutq san'ati haqida aytgan fikrlarida qadimiy turkiy xalqlarning nutq madaniyatini borasidagi boy va noyob merosi mahorat bilan umumlashtirilgan.

Ulug' adib fors tilidan foydalanishda yuqori pog'onaga ko'tarilgan bo'lib, ushbu xususda Navoiy bilan bellasha oladigan kishi kam topilar edi. Bu ijodkorning "Fony" taxallusi bilan yozgan asarlarida ham aniq ko'rinish turadi. Navoiy asarlarining tili XV asr o'zbek adabiy tilining yuksak namunasi bo'lib, til tarixini o'rganishda katta manba va boylikdir. Uzoq va mashaqqatli izlanishlar tufayli uning yana bir qimmatli asari borligi aniqlanganligi, bu asar tili lug'ati bo'lib, "Sab'at abxur" (Yetti dengiz) nomi bilan mashhurligi, hozirgi vaqtida Turkiya olimi Ogah Sirri Lavand Alisher Navoiyning ana shu lug'ati ustida tadoqot olib borayotganligini matbuotda xabar qilgan edi.

Alisher Navoiy aniq bir dialektga asoslanib ish ko'magan. U o'zbek dialekt va shevalarida ko'p va



Aliboy QAHRAMONOV,
filologiya fanlari nomzodi,
O'zDSMI katta o'qituvchisi

keng qo'llanuvchilik xarakterli xususiyatlarni tanlab olib, o'zbek adabiy tilini taraqqiy ettirish uchun qizg'in kurash olib bordi. Navoiy asarlarida qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi va qisman qipchoq shevalari xususiyati mavjuddir. Sho'r asarlari tilining fonetikasi hozirgi zamona o'zbek tili va X-XIII asr yodnomalari tilining fonetikasidan o'zining ba'zi xususiyatlari bilan farq qiladi. Navoiy tilining fonetik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan masalalar hali to'lato'kis ravishda hal qilingani yo'q. Navoiy nutqining fonetik bo'laklari haqida tilshunoslarimiz bir-biriga mos kelmaydigan turli fikrlarni bayon qilganlar.

Alisher Navoiy chog'ishtirma (kontrastiv) lingvistikating asoschisi hisoblanadi. U o'z ona tilida badiiy ijod qilish, ona tilining butun go'zalligi, tarovatini amalda ko'rsatish bilangina cheklanib qolmaydi. Ona tilini o'sha davrda badiiy adabiyot uchun an'ana bo'lib qolgan fors tiliga qiyoslab, bu tildan hech qolishmasligini, hatto ba'zi o'rnirlarda ustunroq turishini ilmiy jihatdan ham isbotlab bermoqni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Ana shu maqsadda, 1499-yilda ikki til muhokamasiga – ikki tilning chog'ishtirma grammatikasiga bag'ishlangan maxsus asarini – "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini yaratadi. Bu asarining maydonga kelishi bilan dunyo tilshunosligida yangi sahifa ochildi. Tilshunoslikning hozirgi kunda chog'ishtirma (kontrastiv) lingvistika deb yurutiluvchi yangi yo'nalishga asos solindi. Chog'ishtirma tilshunoslikning o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ikki tizimga mansub bo'lgan tillar tilning barcha sathlari bo'yicha bir-biriga solishtiriladi.

Navoiy o'zbek adabiy tilini rivojlantirish, bu tilda go'zal asarlar yaratish, o'zbek tilini yuqori mavqega ko'tarish, uni xalq manfaatlariga xizmat qildirishni orzu qiladi. U o'zbek tilini kamsitgan, bu tilda yaxshi asarlar yozish mumkin emas, deganlarga, turkiy tilga bee'tibor bo'lgan kishilarga munosib javob bera oldi. O'zbek adabiy tilini boyitdi, ravnaq toptirdi. Navoiy o'zi berayotgan ma'lumotlarning aniq, to'g'ri bo'lishiga ham e'tibor beradi. Til va nutq masalalari asl mohiyati sho'r asarlarida o'zining yorqin dalilini topdi desak, maqsadga muvofig bo'ladi. Bobur, Ogahiy, Komil Xorazmiy, Munis, Mashrab, Maxmur, Gulxaniy, Nodira, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar, Fitrat, Behbudiy, So'fizoda kabi mutafakkir sho'r va yozuvchilarning asarlarida Navoiy boshlab bergen o'zbek mumtoz adabiy tili masalalari mukammalashib bordi.

G'azallar

* * *

*Junun vodisig'a moyil ko'rарman joni zorimni,
Tilarman bir yo'li buzmak buzulg'on ro'zgorimni*

*Falak bedodidan garchi manim xoki g'ubor o'lum,
Tilarman, topmag'aylar to'tiyolikka g'uborimni.*

*Demang, qay sori azm etding, menga yo'q ixtiyor, oxir
Qazo ilkiga bermishman inoni ixtiyorimni.*

*Tugandi ashki gulgun, emdi qolnish za'faroni yuz,
FaLak zulmi badal qildi xazon birla bahorimni.*

*Diyorim ahli birla yordin boshimg'a yuz mehnat,
Ne tong, boshim olib ketsam qo'yub yoru diyorimni.*

*Yomon holimg'a bag'ri og'rig'ay har kimsakim ko'rgay,
Bag'ir pargolasidan qong'a bulg'ong'on uzorimni.*

*Hayotim bodasidin sargaronman asru, ey soqiy,
Qadaha zahr qotil quy, dog'i daf' et xumorimni.*

*Jahon tarkini qilmay chunki tinmoq mumkin ermastur,
Navoiy, qil meni ozod o'rtab yo'qu borimni.*

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy o'z zamonasining buyuk shaxsi va davlat arbobi, bugungi kunning esa buyuk ajdodi va beqiyos siyosidir. Alisher Navoiy bobomiz o'z zamonasining komil insoni va xalqning ma'naviyati bo'lgan, desak adashmaymiz. U zot nafaqat komil inson, balki xalqni ham komillikka yetaklay olgan, qolaversa, asarlarida ham shu xislatni yorita olgan ma'naviy barkamol insondir.

Mutafakkir bobomiz



Dinora RAHIMBOYEVA,
"Kutubxona-axborot
faoliyati" ta'lrim yo'nalishi
3-bosqich talabasi

Har yili 9-fevralda, so'z mulkining sultoni hazrat Mir Alisher Navoiy bobomizning tavallud kuni tantanali tarzda nishonlanadi. Manbalarda u zotning oиласи haqida ma'lumot uchramaydi. Birinchi ustozni tog'alari Muhammad Ali G'aribi va Qobuliyalar bo'lgan. Tog'alari haqida "Majolis un-nafois"da ko'p ta'riflar keltirib o'tilgan. Navoiy asosan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limi va ilmiy-falsafiy yo'nalishlarda qalam tebratgan. U zot nafaqat turkiy, balki butun jahon ma'naviyatiga ulkan hissa qo'shgan olimdir.

AMALIYOT - nazariyot ustuni

Hozirgi kunda Oliy ta'larning asosiy maqsadi, Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi taraqqiyotini belgilash, jahon hamjamiyati mamaliktarining ta'lum tizimi safidan munosib o'rinnegallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishdir. Ayniqsa, dars jarayonlarida jahoning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, interfaol darslarni tashkil etish, amaliyot va nazariyotning mutanosibligini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda.



Baxtiyor SAMIYEV,
"Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil
etish va boshqarish" ta'lum
yo'nalishi 1-bosqich talabasi

biz talabalar, fan o'qituvchimizdan o'zimizni qiziqirgan barcha savollarga javob oldik. Ustoz Jumagul Nishonova: "Bugungi tinch-osoyishta kunimizga, farovon hayotimizga shukronalar aytib yashashimiz kerak", – deya biz talabalarini ibrat ko'chasiga yetakladidi. Bir talaba sifatida, amaliyot darsasi musataqil hamda ijodi fikrlashni tarbiyalash bilan bir qatorda, ilm-urfonga intilshga, innovatsion ta'lum madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi, deb ayta olaman.

Hikmatlar

*El qochsa birovdin, el yamoni bil oni,
Ahvolida idbor nishoni bil oni.
Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,
Olam elining yamon-yamoni bil oni.*

*Kamol et kasbkim, olam uyidin
Sango farz o'Imag'ay g'amnok chiqm
Jahondin notamom o'tmak biayni,
Erur hammomin nopol chiqmoq.*

*Menga ne ishqu, ne oshiq havasdur,
Agar men odam o'lsam, ushbu basdur.*

*Yuz jafo qilsa manga bir qatla faryod aylamon,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram.*

*Bu gulshan ichraki, yo'qdur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur, chiqsa yaxshilik bila ot.*

*Ko'p demak birla bo'Imag'il nodon,
Ko'p yemak birla bo'Imag'il hayvon.*

Insonlarni bunday guruhlash azaldan mayjud. Ilm-fan va ma'naviyat darg'alari, o'zini tug'ilgan shahri yoki yurti bilan ataganlar. Oddiy kishilar esa o'zini "elakchilar mahallasidanman" yoki "pichoqchilaridanman", deb tanishtirgan. Hozir ham holahvol so'ralganda, xonadondan keyin mahalladagilar tilga olinadi. Bu etnoan'analarni barcha xalqlarda kuzatish mumkin. Ularni inkor etishni esa asossiz, deb bilamiz.



Viktor ALIMASOV,
falsafa fanlari doktori, "San'at va madaniyat
menejmenti" kafedrasining professori

Shaharliklar va qishloqlikar

XX asrda o'zbek xalqi hayotida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Ular tarixiy-madaniy adabiyotlarda keng yoritilgan. Manbalarda eng yirigi shahar madaniyati bilan qishloq madaniyati, eski etnoan'analarga zid tarzda bir-biriga yaqinlashuvi bo'ldi. Bir paytlari, shahar madaniyati qishloq madaniyatini yutadi, shahar aholisi qishloq aholisini o'zining madaniy darajasiga ko'taradi, assimlyatsiyalashtiradi, degan qarashlar ham paydo bo'lgandi.

Bugun shahar bilan qishloq o'rtaisdagi yaqinlashuv aloqalari yanada kuchaygan. Transport-kommunikatsiya tizimi qishloq aholisini mobil bo'lismaga yordam bermoqda. Xalqaro tadqiqotlar natijasiga ko'ra, qishloq aholisining 80-85 foizi shahar madaniyatidan bahramand. Ularning uchdan biri deyarli har kuni, qolganlari haftada yoki oyiga bir marta shaharga tushib turadi. Asosan savdosoti komplekslari va tibbiyot markazlari xizmatlaridan foydalanish 43 foizni, o'qishga kirish 21, qarindoshurug'lar holidan xabar olish 11, xizmat safarları 6 foizni tashkil etadi. O'zimizning kuzatishlarimizga muvofig, keyingi yillarda sayohat turizmi jonlanmoqda. Shaharlardagi muzeylarning va teatr tomoshalarining asosiy auditoriyasi tuman va qishloq aholisi bo'lib qolmoqda. Mazkur aloqalar ijtimoiy-madaniy hayotga ziddiyatlari ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, qishloq madaniyatida sifat o'zgarishlari ro'y beradi. Shahar urbanizatsiyasi qishloq aholisini qiziqtitir kelayotgani sir emas. Shu omil tufayli qishloq madaniyatida, turmush tarzida shaharga taqlid qilish kuzatiladi. Ikkinchidan, shahar qishloq yoshlari uchun ma'rifat, bilim olish, intellektual rivojlanish markazidir. Ijodiy erkinlik va rang-baranglik ularning diqqatini jalb etadi. Uchinchidan, shahar – keng mehnat bozori. Qishloq hayotini va infratuzilmasi shakllantiruvchi omillar, kuchlar va idoralar shaharda. Ushbu imkoniyatlardan foydalanish istagi qishloq aholisini mobil qilmoqda. Ammo bu mobillik salbiy ta'sir etishini ilg'amaslik mumkin emas.

Birinchidan, qishloqdan kelgan kishi shahar madaniyatini o'rganish, o'zlashtirish va o'z qishlog'iда targ'ib etishni xayoliga keltirmaydi. To'g'ri, u shaharga taqlid bino ko'tarishi, uyini bezatishi mumkin. Lekin

u, bu binoni har kuni chang-tuproqdan tozalab, atrofiga suv sepib turishni unutadi. Yangi binosi oldida pichan yoki tezak uyulib yotaveradi. Uyi oldini asfalt qilish, ariqchani tozalab qo'yish, dizayn san'atidan foydalanish xayoliga kelmaydi. Ikkinchidan, shaharga ko'chib kelgan hamqishloqlarim bor. Goho uchrashib turamiz. Ularning shaharga ko'chib kelganiga anchha yillard bo'lgan, biroq xorazmcha so'kinish, dag'allik va manmanlikdan xalos bo'lishmagan. Samolyotga minayapmiz, o'rinnlar aniq belgilangan. Ular esa bir-birini itarib, tutrib zinapoyaga yopishishadi. Avtobus orqasidan turib, haydovchiga: "To'xta, pulingni olasan. Shu yerda to'xta", – deb baqirishadi. Ular uchun belgilangan yo'lakdan o'tish tartibi, ayloga yo'l berish kabi axloqiy normalar deyarli yo'q. Uchinchidan, shaharga ko'chib kelgan qishloqlar (men ularni kamsitayotganim yo'q, balki etnoleksikologiyaga taqlid qilayapman) yoshligida o'zlashtirgan lahja, urfatlar, qarashlardan voz kechishmaydi. Aksincha, ular bu an'analarni yon-atrofga, shahar madaniyatiga singdirmoqchi bo'ladi. Natijada, shahar madaniyatida rivojlanish susayadi. Shahar madaniyati elita ta'siriga, betakror, nozik didli bo'lismaga moyil, qishloq madaniyatida esa ommaviylik, an'anaviylik, taqlidchilik ustuvor. Ijtimoiy-madaniy rivojlanishni shahar belgilab kelgan, shuning uchun ham shahar sivilizatsiya markazi hisoblanadi.

Shahar bilan qishloq madaniyati o'rtaisdagi farqni, o'ziga xoslikni bartaraf etish mushkul. Hatto, kerak ham emas. Etnomadaniy pluralizm ijtimoiy-madaniy taraqqiyot omilidir. Bunday pluralizm bir etnomaniyat ichida ham bo'ladi. Masalan, lajhalar, tasavvurlar, gender aloqalar, hatto imo-ishoralar turli viloyatlarda turlicha bo'lishi taajjub uyg'otmaydi. Bular shahar madaniyati bilan qishloq madaniyatining o'zaro yaqinlashuviga xalaqit berolmaydi. Shunday bo'lsa-da, qishloq madaniyatidagi ommaviylikka, taqlidchilikka intilish shahar elitar madaniyatiga ma'lum bir to'siqlar tug'dirishini unutib bo'lmaydi. Qishloq ekspansiyasini to'xtatib bo'lmaydi, ammo uni sivilizatsiyavgi voqelikka aylantirish mumkin. Elitar madaniyat juda nozik, hatto o'ta zaif vogelik, uni tashqi dag'al ta'sir tez yo'qqa chiqarishi mumkin. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ko'zlagan jamiyat, avvalo elitar madaniyatni yuksak namuna, ibrat va yuksalish mezoni deb biladi.

O'ziga bek, o'zbek

Biz turmush tarzimizga, hayotimizga razm solsak, borliqda sodir bo'layotgan jarayonlarni kaftimizda ko'ramiz. Jahonning boshqa davlatlari qatorida bizning O'zbekiston ham yuksalib, rivojlanib bormoqda. Bunday rivojlanish asri texnika, ilm-fan, tibbiyot, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi va yana boshqa ko'plab jabhalarda namoyon bo'limoqda. Lekin hayotimizda shunday asriy yangilanishlar bo'lyaptiki, taassurotlarni qog'ozga tushirsak, yirik asar yuzaga keladi.

Yo'lda yuki og'ir bir insonni uchratsangiz, yo'lovchiga yordam qilyapsizmi? Oddiy bir jarayon, ayrim yoshlar aftobusda yoshi kattalarga joy bermaydi. Ko'rib, ko'rmaganga oladi. Bizning an'analarni sobiq sovet davri singari ayancli kunlarni ko'rdi. Lekin katta yoshli insonlar bilan suhbatlashsak, bunday holatlar avval bo'lismagan ekan. Avvallari to'y boshlagan inson "maslahat oshi"ga qarindosh, yor-biordanlarini chaqirgan. Bizningcha, to'y hasham, ma'rakalarda o'zbekona urf-odat, an'analalar yo'qolib bormoqda. Ota-bobolarimizdan meros qolgan an'analarni unutib qo'yyapmiz. Evropaga taqlid oshib boryapti. O'zimizni va o'zligimizni asraylik. O'ziga bek o'zbek bo'laylik!



G'olib MEYLIBOYEV,
"Madaniyat
va san'at sohasi
menejmenti" ta'lim
yo'nalihi 1-bosqich
talabasi

"Onalarga til o'rgating"

yoxud Behbudiyning til taraqqiyoti
yo'lidagi mulohazalari

"Ona tili, ona
tili... Bu yaxshi
orzu". Buyuk
ma'rifatparvar
adibimiz
Behbudiyning
chuqur bir
xo'rinish
bilan bitgan bu
so'zlari, uning
til masalasiga
bo'lgan jiddiy
yondashuvidan
darak beradi.



"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" ta'lim yo'nalihi 3-bosqich talabasi

YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, 2100-yilga kelib dunyodagi 6700 ta tilning yarmi butunlay yo'q bo'lib ketishi mumkinligini, shuningdek, hozirgi vaqtida dunyoda har ikki haftada bir til o'layotganini hisobga oladigan bo'lsak, jadidlarning bunda qariyb bir asr oldindanoq bu yo'lidi sa'y-harakatlari nechog'lik to'g'ri bo'lganini osongina anglashimiz mumkin. Buning dahshatlji jihat, ma'lum bir tilning yo'qolishi bilan ona tilida so'zlashuvchilarning o'ziga xos madaniyati ham yo'qoladi.


Yozma manbalarga ega bo'Imagan juda ko'p mahalliy tillar bilan odamlar vafot etganda, ilm-fan va tibbiyot haqida qimmatli ma'lumotlarni yo'qotadilar. Darhaqiqat, uni asrab qolish har bir millat vakillarining o'z qo'llarida ekanligi kundek ravshan. O'zining 1913-1915-yillarda "Oyina" jurnalida "Ikki emas, to'rt til lozim", "Til masalasi" nomli maqolalari bositgan Mahmudxo'ja Behbudiyl til bilish va ona tili rivojiga bo'lgan qator fikr va mulohazalari bilan til taraqqiyotiga yuksak e'tiborda bo'lganini bilishimiz mumkin. Ayniqa, "Til masalasi" nomli maqolasida, adib jonkuyarlik ila ona tilining rivoji uchun harakat qilish, adabiy tilga e'tibor berish, sheva va lajhalarini kamaytirish, shuningdek, chet tillaridan o'zlashgan so'zlar orqali ko'pincha ona tili sofligiga zarar yetkazilishi haqida so'z yuritadi:

"Hozirgi so'zimizga qo'shilgan forsy va arabiy so'zlar bizni arab-u forsga bir daraja yaqin etar. Ilm-u fan kitoblariga yaqinlashmog'imizga vosita bo'lur. Ba'zi birodarlarimizning sof ona tili bor. Ammo ona tilida maktab, madrasa, fanniy va ilmiy kitoblar ta'sis etolmaydilar. Chunki so'z yetishmaydur. Agarda alar taraqqiy etsa va madaniy bo'lsa, hukman hozirgi tilni o'zgartirib bo'lur hamda ming yil avvalgi tilga qaytmoq qonuni tabiatga muholifdur. Begona tildan so'z olmoqdan qutulgan til yo'qdur".

Yana bunga dalil qilib, o'zga bir tilga tegishli so'zni tillardan birdan yo'q qilib bo'lmasligini, bu yengil-yelpi orzu ekanligini misollar bilan tushuntirib beradi. Chunonchi, "Sadoi Turkiston"ni – "Turk eli dovushi", "mehmon"ni – "qo'noq" deb bo'lmasligini, uni qilsa ham butun mamlakat bo'ylab jurli jug'rofiv nomlar, tarixiy binolar, mashhur odamlarni-da nomlarini sof Turkiya o'zgartirib bo'lmaydigan bir ish ekanini ta'kidlaydi. Barcha so'zlar uchun turkiydan muqobil axtarib vaqtini zoye qilgandan ko'ra, imkon yetguncha arabiya va forsiy kam yozilishiga urg'u beradi. Xalqni, ayniqa, adiblar-u nashriyotchilarni buzuq shevalarni sozlamoqdan qaytargan Behbudiyl oxir-oqibatda har nening, har kimning kamolotli uchun onalar birinchi bo'lib mas'ulligini ta'kidlaydi: "Tilsiz" onalar tilida maktabiy kitoblar yozilaversa, Turkistonda adadsiz buzuq ona tillar shevasida adadsiz kitoblar yozishga to'g'ri keladi-ki, Andijonda yozilgani Buxoroda, Avliyootada yozilgani Qarshida anglashilmaydur. Chunki bu onalarning tili bir-biridan farqlidir. Taraqqiy etgan millatlarni onalari o'qitar ekan, biz ham avval onalarimizni o'qitib, ularga til o'rgatmog'imiz kerak. Chunki bizni ilm va tilsizligimiz alardandir" ("Oyina" ro'znomasi, 1915-yil, 2-aprel №12).

Darhaqiqat, mana shunday buyuk allomalarga boy zaminda yashayotgan ekanmiz, har birimiz milliy o'zligimiz anglab yetishimiz zarur. Oqni qoradan ajrata olish uchun ongimizda yetarlichla bilim va saviya bo'lishi, buni o'z navbatida, butun jahon hanuz tadqiq qilayotgan ajodoliarimiz merosini o'rganish orqali amalga oshirish mumkin. Zero, "Ong o'zgarmaguncha boshqa o'zgarishlar negiz tutmas" ("Bilim o'chog'i" ro'znomasining shiori, 1912-yil).

GEYNE BILAN O'RTOQ TUTINGAN SHOIR



*Ming yillardan keyin ham
Unutmas meni bog'im.
She'rlarim yangrab qolur....
Bir umrga o'lmayman.*

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, haqiqat vaadolatni qayta tiklash, xalqimizning minglab fidokor va sobitqadam farzandlari xotirasiga hurmat va ehtirom ko'rsatish, bunday qismatga duchor bo'lgan yurtdoshlarimizni aniqlash, nomlarini abadiylashtirish va tarix zarvaraqlariga muhrlash borasida ko'plab savobli ishlar amalgab oshirilmoqda.

Bu borada davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev namanganlik saylovchilar bilan uchrashuv chog'ida, 2022-yil hassos shoir Usmon Nosirning 110 yilligini mamlakat miyosida keng nishonlash haqida so'z yuritib: "Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu beba boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi", – degan so'zlarida katta ma'no bor.

*Tingla, erkam, o'rtog'imsan,
Ko'nglimni ochay.
Qonim she'r bo'lib oqsinda,
Men qayta ichay.*

Usmon Nosir misralarida jimmadorlik, g'alizlik, zo'rma-zo'rakilik ko'rinas, fikr va tuyg'u sodda, lirik harorat bilan bayon qilinar edi. Usmon Nosir ijodda iste'dodli, tug'ma shoir sifatida tanildi. Uning ilk she'rlari

maktabda o'qib yurgan paytlaridayoq matbuotda ko'rina boshlagan edi. Shoiring "Quyosh bilan suhabat", "Safarbar satrlar", "Traktorobod", "Yurak", "Mehrim" kabi she'riy to'plamlari, "Norbo'ta" va "Nahshon" dostonlari birin-ketin nashr qilinib, adabiyotga yonib kirib keldi. Uning "Norbo'ta" (1932) asarida O'zbekistondagi fuqarolar urushi mavzusi, "Nahshon" dostonida arman xalqi farzandlarining ozodlik uchun intilishlari kuylangan bo'lsa, antik dunyodagi qullar kurashi "Nil va Rim" kabi poetik asarlarida o'z aksini topdi. Shuningdek, badiiy tarjima sohasida ham shoir o'ziga xos tarjimonlik maktabini va poetik didini namoyish qilgan edi. N.Dobrolyubovning "Haqiqiy kun qachon keladi?" degan mashhur asarini, V.Kirshonning "Ulug' kun" dramasini, Pushkinnning "Bog'chasarov fontani", M.Lermontovning "Iblis" nomli dostonlarini, Geyne, Gyote, Bayron ijodidan ko'pgina namunalarni o'zbek kitobxonlari Usmon Nosir tarjimasi asosida o'qidi. "Geyne bilan o'rtoq tutindim", "Lermontovdan ko'mak

o'tindim", degan yosh shoir rus va jahon poeziyasining fazilatlarini ijodiy talqin qilish bilan birga, Sharq adabiyoti va o g'zaki ijodining boyliklarini ham egallahsga intildi. "Usmon Nosir she'riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo'ronday! U shunday to'polon va to'lgin bilan keldiki, unchamuncha she'riy uslub va ijodni to's-to's qilib yubordi. Uni o'zimizda "o'zbekning Lermontovi", Moskva gazetalarida "Sharqda Pushkin paydo bo'ldi", deb yozishdi", – degandi unga zamondosh shoir Turob To'la.

Biroq shoir yashagan davr haqiqatdan ham qaltsi bir davr edi. Sho'rolar hokimiyat tomonidan milliy tarixdan, adabiyotu madaniyatdan yiroqlashtirish choralar ko'rilib, Sharq adabiyotidan, tarixidan uzoqroq yangi ziyoliylar qatlami shakllana bordi. Adabiyotda ham sho'rolar ta'lif bergan iste'dodlar bo'y ko'rsatdi. Usmon Nosir ham ana shu tarbiyani olgan yoshlar safida bo'ldi. Yosh Usmon Nosir sergak bo'lgani va mumtoz adabiyotimizga katta qiziqish uyg'otgan Cho'lpondek ustozi sababli, yurtimizda nimalar ro'y berayotgani va eng avvalo she'riyat hurnlik ekanini anglay boshladи. Shunday zamonlar ediki, o'zbek she'riyatida tuyg'ularni bor bo'yicha ko'rsatish mumkin emas bo'lib, milliy she'riyatimiz odob, andisha qoliplaridan chetga chiqmaslikka undardi. Usmon Nosir ana shu qoliplarni buzishga jur'at qilgan shoirlardan bo'lib, 30-yillarning boshlaridayoq, u o'z dunyoqarashi orqali o'zbek she'riyatiga yangicha oqim olib kirdi.

Usmon Nosir 1937-yilning 18-iyulida hibsga olinganda hali 25 yoshga to'Imagan edi. Xuddi shu damlarda u, A.S.Pushkinning "Bog'chasarov fontani" dostonini tarjima qilish bahonasida Moskvada ulug' shoir tavalludining 100 yilligida ishtirok etishga tuyassar bo'lgan. Xususan, u tarjima qilgan "Ulug' kun" sobiq Hamza teatridera muvaffaqiyat bilan namoyish etilgan. "Vatan haqida qo'shiq" she'ri Moskvada ilk bor o'tkazilgan O'zbekiston san'ati o'n kunligida ijo etilib, yuksak kayfiyat bilan kutib olingen. Fojiani qarangki, buyuk iste'dodning ana shunday kamolotga ko'tarilgan bir davrida uni sovet davlatining qatag'on siyosati ayamadi. Usmon Nosir 1937-yilning 14-iyulida "Xalq dushmani" sifatida qamoqqa olindi. Hayotining qolgan qismini Toshkent, Magadan, Kemerovo turmalarida o'tkazib, inson bolasi chidashi mumkin bo'lmaydigan



**Qunduz NISHONBOYEVA,
"San'atshunoslik va
madaniyatshunoslik" kafedrasi
dotsenti,
tarix fanlari nomzodi**

qiyonoqlarga duchor bo'lgan shoir 1944-yilda Kemerovoda vafot etdi.

Shoiring 2 jildlik "Tanlangan asarlari"ni to'plab, G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyotida nashrga tayyorlagan adib Abubakr Rajabiying bergan ma'lumotlariga ko'ra, Usmon Nosir hayoti bilan bog'liq bir qiziq voqeani talabalarga so'zlab bergan:

"Usmon Nosir tug'ma shoir bo'lganligi bois, ul zot qamoqda yotganida ham she'r yozishni kanda qilmagan ekan. Har galgidek mahbuslarni ishga olib ketishganida, qamoqxona ma'muriyati yotoqni ko'zdan kechirsa, ko'rpa-to'shaklarning yag'iri chiqib, bit bosib ketganiga guvoh bo'libdi. Barcha ko'rpa-to'shaklarni yoqishga buyruq bo'libdi. Kechqurun mahbuslar ishdan qaytsalar, ko'rpa-to'shaklar almashtirilgan. Mahbuslar topgan pullarini matraslarning ichiga tiqishar ekan. Bir kun ozodlikka chiqsak asqatar, deb. Usmon Nosir esa, yozgan she'rlarini matrasi orasida saqlar ekan. Hamma: "Voy pulim" deb yig'lasa, shoir "Voy, she'rim" deb faryod ko'targan ekan. Shu she'rlarni seva olgan odamgina aya olishi mumkinki, aynan yosh shoir "Naxshon" dostonida "Ishqimning eng olyi tuhfasi she'rim", – deb yozgan edi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Usmon Nosir o'zbek she'riyatiga yangi ohang, yangi ruh, yangi obrazlar olib kirdi. U she'rlarida alangali tuyg'ularni jilovlamas, dilida kechayotgan tug'yonlarni susaytirmsa, inson ruhiy dunyosini, kechinmalarini baralla kuylagan shoir edi:

*She'rim! Yana o'zing yaxshisan,
Boqqa kirsang, gullar sharmanda.
Bir men emas, hayot shaxsisan,
Jonim kabi yashaysan manda.*

MENING USTOZIM

Ustoz – otangdek ulug', deb ota-bobolarimiz bejiz atymagan ekan. Avvalo, insonning ilk ustoz, albatta, uning ota-onalasidir. Ota-onsa biz farzandlarni go'daklik paytimizdan oq chiroli parvarish va tarbiya qiladi. Bog'bon daraxtni qanday parvarish qilsa, ota-onsa ham farzandni shunday parvarish qiladi. Ya'ni, bog'bon ko'chatni yerga qadaydi va yillar mobaynida ko'chatni daraxt bo'lib bo'y cho'zishida mehnat qiladi. Bog'bon daraxtga mehr-muhabbat bog'laydi va albatta, shirin mevasidan bahramand bo'ladi.

Bu so'zlarimiz bilan bog'bon va daraxtni, ota-onsa va farzand tarbiyasiga qiyos etmoqdamiz. Ota-onsa farzandiga chiroli tarbiya va hayotiy pandu nasihatlarni beradi. So'ng, vaqtlar o'tib xuddi bog'bon kabi, farzandidan hosil teradi. Ota-onsa va ustoz-muallim bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Chunki ustozlar daraxtning meva berishiga, ya'ni shogirdning kelajakda yetuk inson bo'lib yetishishiga ko'maklashadi. Ustoz shogirdga

nafaqat bilim beradi, balki katta hayot yo'llariga ham tayyorlaydi. Vaqtlar o'tib, albatta, daraxt – o'quvchi meva beradi. Kelajakda bu mevadan yurt, ota-onsa va ustoz bahramand bo'ladi.

Menimcha, ustoz har bir shogirdning hayotida katta rol o'ynaydi. Kamina ayni damda malakali ustozlardan bilim olmoqda. Ularga hamisha ta'zimdamon. Shu yillar ichida malakali ustozlardan bilim oldim. Ularga ming bora ta'zim qilsam ham kam. Ustozlarim Boqiyeva Muhtabar, Usmonaliyev Husniddin, Rahimova Barno hamda Zikrillo Rahmatillayevichlardir. Bu insonlardan bag'oyatda xursandman. Ustozlarim doimo orzu-umidlarimni qo'llab-quvvatlaydi va o'zimdagisi ishonchni yanada mustahkam bo'lishiga ko'maklashadi. Bu insonlar yordamida, 2022-yil O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutiga davlat granti asosida o'qishga qabul qilindim. Ko'nglimdagisi so'zlarni qog'ozga tushirar ekanman, avvalambor, ota-onamga va ustozlarimga boshim yerga tekkuncha ta'zim qilaman. Shu o'rinda Alisher Navoiy bobomizning baytalarini keltirib o'tmoqchiman:

*Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamat bo'imas ado oning haqin yuz ganj ila.*



**Dildora ABDURAIMOVA,
"Ommaviy tadbirilar
menejmenti" ta'lif yo'nalishi
1-bosqich talabasi**

Andisha

Qiz yosh edi, sho'x edi. Ammo ibo-xayoli edi. Ko'zları doim chaqnardi. Oqar suv kabi ortga qaytmaydigan yoshlik chog'ida hech kim bilan sevishmadı, hech bir yigitga ko'ngil bermadi. Lekin una qalbining tub-tubidagi tuyg'ularini dasturxon qilganlar, uni chin dildan sevganlar ko'p bo'ldi. Qiz otasining so'zlarini doim yodda tutib yashardi. Otasi: "Sen mening do'stimning o'g'liga turmushga chiqasan, qizim. Men do'stim bilan va'dalashganman. Meni belafz qilmagin, xo'pmi qizim", – degan edi.

Va'daga binoan betakror va dabdbabali to'y bo'ldi. Qiz qalbi entikdi, yuzlari gilosdek qizardi. Har galgidek hayajondan ko'zlarini bir muddat qattiq yumib, hayajonini bosib, quvonchdan jilmayib qo'ydi. Chunki yigit alpqomat, Rustam desa Rustamdek, Farhod desa Farhoddekk yigit edi.

Qiz yigitga ko'ngil berdi. Ammo yigit negadir boshqacha, na ayolini sevardi va na boshqa qizni. Qiz bu holning sababini tushunmas edi. Oradan olti oy o'tdiki, qiz hali ham xushbichim. Qomatida o'zgarish bo'lmasan. Qiz bechora qynalardi, aybim nima ekan, deb. Yigit hayotining eng go'zal damlarini, yangi kelin-kuyovlik chog'larini ham afyundan lazzat olib o'tkazardi. Qiz bechora buni bilar, ammo qaynona-qaynotasiga aytolmasdi. Erining vajohatidan qo'rqardi. Har kuni yurak o'ynog'ida edi. Shunda ham vafodor qiz oilan muqaddas bildi. Nabira istab, danakning mag'zini kutayotgan qaynonaning sabr kosasi to'ldi. Kelinchakni haydadilar. Er uch taloq nima ekanini ham bilmasdani, bu so'zni tilga oldi. Ayol yana odatiga muvofiq hayajonini, jahlini bosish uchun ko'zlarini bir muddat qattiq yumib turdi.

Kelinchak andisha qilib, ota uyiga qaytib bormadi. Qayerga ketganini hech kim bilmadi. Bechorani hamma aybladi.

To'ppa-to'g'ri, u aybdor. Aybi hayo va andishaning kuchi bilan na o'z ota-onasiga, na nabira suyushni sog'ingan orzulari osmon qaynonasiga, ikki yildan beri jufti halolining bir bora suyb-erkalamagani, aynan hozir ham bokiraligicha uydan chiqib ketayotganligini ayta olmaganida edi.

Shahidlar

Tunning izg'irin sovug'ida kunduzi loy bo'lib, hozir muzlab qolgan yo'lning chetiga ot-arava kelib to'xtadi. Bosilaverib xuddi gilamdek yerga yopishib ketgan qorlarni bosib kelayotgan uchta sozanda va ko'ngillilardan bo'lib qismga kelgan hamshira qiz, odatdagidan ko'ra chuquroq va juda uzun akopga nazar tashlashdi. Qizgina juda xursand kayfiyatda uxbab yotgan askarlarni uyg'otishga, Yangi yil bayrami bilan tabriklashga urinib:

– Yigitlar, uyg'oninglar. Yangi yil kirdi, axir! Hammangizni Yangi

yil bayrami bilan tabriklagani keldik.

Qosh-kipraklari va bor bo'lsa mo'ylovlari qorning oppoq rangiga bo'ylib, ko'zi yumuq yotgan askarlarning orasidan sarmast, ya'ni sharobning kuchi bilan zo'rg'a qoni yurishib turgan starshinaning pichirlab:

– Hoy, jim bo'linglar! Nimaga buncha baqirasizlar? – degan ovozi eshitildi.

Qiz ham pichirlab murojaat qildi:

– O'rtoq starshina, axir, bugun bayram-ku! Uch kun deganda, zo'rg'a ruxsat olib keldik.



Mahmud CHORIYEV,
"Estrada va ommaviy
tomoshalar rejissorligi" ta'lim
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Askarlarni uyg'oting.

– Ular uch sutka deganda endi dam olishyapti, tinch qo'yaylik ularni, – dedi starshina.

Skripkachi ham sekin engashib:

– O'rtoq starshina, aravada vinolar ham bor. Biz ham musiqa chalish uchun qurollanib keldik. Axir bayram qilaylik endi.

Starshina yotgan askarlarning har biriga sekin ko'z tashlab chiqdi. Va musiqachilarni akop ichiga tushishlarini buyurib:

– Chalinglar! – dedi.

Musiqachilar:

– Axir ular uyg'onmagan-ku, qaysi kuyni chalaylik, – deb so'rashdi.

– "Kalinka"ni chalinglar, sho'xroq chalinglar!

Sozandalar "Kalinka"ni sho'x kayfiyat bilan chalishganda hamshira qiz akop tashqarisida raqsga tushib, starshinani ham raqsga chorladi. Starshina hamshira qizga kulib qarab qo'ydi. Musiqa tugagandan so'ng, sozandalar bir-biriga qarab olib, starshinaga savol berdishdi:

– Nega uyg'onishmayapti?

– Ular endi uyg'onishmaydi... Sizlarga rahmat yigitlar. Endi qismga qaytinglar! – dedi.

MITTI HIKOYALAR



Inobatxon HASANXONOVA,
"Musiqali drama teatr aktyorligi" ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich sirtqi talabasi

Rassom va tabiat

Ijodiy sayrga chiqqan rassom yigit soy bo'yiga kelib qolibdi. U yerda sochlari qirqkokil, malak misol chiroy taratayotgan majnuntol daraxtini ko'rib, hayratlanibdi. Majnuntolning atrofi turfa gullar bilan o'rangan edi. Maftunkor kapalaklar gullarga sarxush raqsga tushardi. Yigit bu go'zal manzarani mo'yqalamda tasvirlar ekan, qorong'i tushib qolganini sezmay ham qolibdi.

Soy bo'yi tunda shunchalik go'zal ediki, yonar qo'ng'izlar, samodagi yulduzlar uning chiroyiga chiroy qo'shardi. Osmondag'i oy manzaraga alla aytardi. Rassom tabiat go'zalligining og'ushida shirin uyquga ketdi.

Tong otdi. Quyosh insonlar bilan salomlashayotgandek olamga zarrin nurlarini socha boshladi. Yigit tabiat go'zalligidan zavqlanib, Allohnning karomatiga, mo'jisasiga hamd-sanolar aytdi.

Mehr

Qizaloq juda o'jar, jizzaki, tantiq bo'lgani sababli, ota-ona farzandiga quyon bolasini olib kelib, uni parvarish qilishni vazifa topshiradi. Qizaloq har kuni quyonga ovqat berib, atrofida parvona bo'ladi. Quyon katta bo'lganida, qizchaning otasi quyonni so'yib qozonga bosdi. Qizcha bu holatni ko'rib qattiq ranjidi, yig'ladi.

Bir kuni ukasi o'ynayotib yiqilib tushganida, u darhol ukasini turg'azib, yaralangan oyoqchalarini mehr bilan silab-siypaladi. Qizida mehr-muhabbat hissini ko'rgan ota-ona esa bundan juda mammun bo'ldi.

Og'riqlar, iztirobler bo'lmasan qalbda mehr-muhabbat bo'lmaydi.

BIZ

ZO'RAVONLIKKA QARSHIMIZ

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Oila bor ekan, farzand degan bebabone'mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma'naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug' saodatdir", – deydi. Avvalambor, oilada muhabbat bo'lishi kerak, bir-birini tushunishi, kamchiliklarini bildirmasligi kerak. Shu o'rinda sizlarga bir oila haqida so'zlab bermoqchiman.

Yigit va qiz uzoq qarindoshligi sababli, bir-birida ko'ngli bo'lmasa ham turmush qurishga rozi bo'ldi. Muhabbat siz turmush baribir o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Uydan janjal arimasdi. Kunlarning birida erkak spirtli ichimlik iste'moldan kayfi baland holatda uyga keldi. Ayoli mijja qoqmay uni

kutib o'tirgan edi. Shunda ayol: "Nega hadeb aroq ichaverasiz, bolalaringizni kelajagini o'ylasangiz-chi! Uyda non ham yo'q, ichkilikning o'rniga uyga ikkita non olib kelsangiz bo'lar edi-ku!" – deya nolidi. Erkakning jahli chiqib ketdi va ayolini sochidan tortib, kaltaklay boshladi. Qo'liga nima tushsa, o'sha narsa bilan xotinini kaltaklayverdi. U ayni holatda hech narsani his qilmas edi. Mushtumzo'r erining qo'lidan zo'rg'a qochib qutulgan ayol, o'sh zahoti bolalarini yetaklab ota uyiga ketdi. Shu bilan er-xotin ajrashishga ahd qildi va sudga ariza berdi. Ichkilik sababli, bir oila buzildi, bolalar esa tirk yetim bo'ldi.

Hozirgi kunda ajrimlar soni ko'payib



Sabrina IBRAGIMOVA,
"Madaniyat va san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish" ta'lim
yo'nalishi 1-bosqich talabasi

bormoqda. Buning sababi, erta turmushga chiqayotgan qizlarning uquvsiligi, yigitlarning kasb-hunarsizligi, tamaki va spirli ichimlikka ruju qo'yanligida, deb bilaman. erta turmush sababli, farzandlar nogiron tug'ilish holatlari ham kuzatilmoqda. Shu o'rinda davlatimiz rahbarining ushbu

so'zlarini keltirib o'tishni o'rinci deb bildik:
"Lekin bir achchiq haqiqatni tan olishimiz
kerak. Bu raqamlar hamon yuqori bo'lib
qolmoqda".

Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosida shunday deyiladi: "Ayl erini, oila ahlini xafa qilishi va ularga aziyat berishi badfe'llik, badxulqlik sanaladi. Alloh taolo marhamat etadi, "O'sha xotinni, uylaridan haydar chiqarmanglar va o'zi ham chiqmasinlar. Illo, fahsh ishni qilsalargina chiqar". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi "Oila haqida"gi bob hisoblanadi. 63-moddada "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyorli roziliigi va teng huquqliligidagi asoslanadi", deb qayd etilgan. Turmush qurayotgan yigit va qizlarimizga Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Baxtiyor oila" asarini mutolaa qilishni tavsiya qilaman. Ushbu asar islam dinining oilaviy munosabatlariiga oid ahkomlarining keng va batatsil sharhi bo'lib, musulmon kishi oilaviy hayotda biliishi lozim bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga oladi. Biz yoshlar zo'ravonlik va ajrimlarga qarshimiz!



Zilolabonu XOLIQOVA,
“Madaniyat va san’at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish” ta’lim
yo’nalishi 3-bosqich talabasi,
O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a’zosi

Yolg’izlik

Kimnidir kutasan, kelmaydi yana,
Olis-olislarga tikilar nigoh.
Yashaysan yolg’iz maskanda,
Sendan zada kabi eng gayum dargoh.

Kezasan, atrofing jim-jit tumanli,
Ko’nglinga tushadi, shu on g’ul-g’ula.
O’ylab ham qolasan, yaraldimmi, deb
Insonni his qilmas nobop tuyg’ular...

Xira nur taratar hattoki oftob,
Muzlab borayotir yuraging nechun?!
Bo’g’zingdan chiqmaydi hayqiriq, xitob,
Qasdma-qasd qilgandek, bu ko’hna ochun.

Tanhilik bitilgan, balki qismatga,
Ozurda joninga qilasan jafo.
Ko’r kabi uloqib kirdi zulmatga,
Qayta chiqolmadni sen kutgan vafo....



Ahrorbek INOMJONOV,
“Madaniyat va san’at menejmenti”
ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi

Singan ko’nglim...

Hayotimda borliging o’zi baxt edi,
Singan bir ko’nglimga madad bo’lmading.
Va’da berib menining yuragim tilib,
Bir singan ko’nglimga oro bo’lmading.

Yolg’oning ko’pmidi shunchalik aytgin,
Ko’zga qarab turib xiyonat qilding.
Senga kamlik qilgan nima bo’ldi ayt,
Shartmidi shunchalik xiyonat qilish.

Va’da bergenlaring turli yolg’oning,
Sotding-ku, bilmasdan o’z vijdoning.
Nega bilib turib xiyonat qilding?!

Bugun xatolarin niyozni juda kech bilding.

Xayotimda borliging o’zi baxt edi,
Singan bir ko’nglimga madad bo’lmading.



Odiljon AHADOV,
“Qo’g’irchoq teatr aktyorligi” ta’lim
yo’nalishi 4-bosqich talabasi

Sevdim seni Gulchiroy

Sokin oqshom qo’ynida,
Eski soyning bo’yida.
Biz tanishdik shu kuni,
To’lin oyning nurida.

Oy ham nurin sochadi,
Kulib bizga boqadi.
Baxtimizga baxt tilab,
Yulduzlar ham boqadi.

Biz ikkимiz sevgining,
Og’ushida uchgandik.
Orzu qilib nelarni,
Xayollar ham surgandik.

Guvoх shildiragan soy,
Hatto, osmondagи oy.
Borim, baxtim sen eding,
Sevdim seni gulchiroy!



Nizomiddin ESHMURODOV,
“Madaniyat va san’at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish” ta’lim yo’nalishi
3-bosqich talabasi

Yurak

Dardga tashna yurak, bu telba ko’ngil,
Izmimga bo’ysunmas, yo’q aql-u hushim.
Yig’lagan yurakni ovutib bir zum,
Oh chekkan yurakka yo’l topmoq ishim.

O’zim o’zimniki emasman bukun,
Hijron azobida bu jonim halak.
Men sening amringga quloq tutdim-u,
Xalqimning dardi-la yashadim, yurak.

So’zni avayladim, so’zni sevdim men,
So’zlearning bag’rida kechirdim hayot.
Men yozgan asarlar – mening yuragim,
Va mening qalbimdan yangragan bayot.

Men hayot tikladim har bitta so’zdan,
Mung’aygan vujudni ezmas shovqini.
Intizor yurakka ato etib baxt –
So’zlar olib kelar hayot zavqini.



Oqila ORTIQBOYEVA,
“Madaniyat va san’at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish” ta’lim yo’nalishi
2-bosqich talabasi

Jadid bobolarim

Assalom, bugungi aziz Turonim!
Tarixingni aytsam, qiyinalar jonim.
Ma’rifatlari diyorim – O’zbekistonim!
Bo’lsa edi, endi jadid bobolar.

Ilmparvarni dorga osdilar,
Ma’rifatparvarni do’stlar sotdilar.
Qodiriy bobomni nohaq otdilar,
Bo’lsa edi, endi jadid bobolar.

To’kildi o’sha payt daryo-daryo qon,
Eng qiyin yumush esa, asrash edi jon.
Jadidlar bilishdi, bu so’nggi imkon,
Bo’lsa edi, endi jadid bobolar.

Ular fidoyidir, pokdir iymoni,
Ziyo taratdi, qolguncha tomchi qoni.
Axir bu, o’zbekning shoir Usmoni,
Bo’lsa edi, endi jadid bobolar.

Hozir esa mustaqil, boshqacha zamon,
Qani endi tug’ilsa edi, bir imkon.
Tirilib qaytsa edi, Qodiriy-yu Cho’lpon,
Qayta uyg’ondardi, bu O’zbekiston!



Sardorbek ATHAMOV,
“Dramatik teatr va kino aktyorligi”
ta’lim yo’nalishi
1-bosqich talabasi

Yaxshilik

Aytib doim shukurni,
Sozlang qalbi bukurni.
Qo’lda yetaklab ko’rni,
Yaxshilik qiling doim.

Kimdir bo’lsa bema’ni,
Qani, yaxshilar qani?!

To’ldiring sizda kamin,
Yaxshilik qiling doim.

Yo’qlab qo’ying onani,
Yig’ishtiring ta’nani.
Kek, gina va arazni,
Yaxshilik qiling doim.

Aybi yo’qdir davrni,
Doim tuting sabrni.
Bosib oling hovurni,
Yaxshilik qiling doim.



Jannatimsiz, onajonim!

Boshimizni siladingiz onajonim,
Mehringiz-la siyladingiz mehribonim.
Siz o’zingiz bir jahonim,
Jonimdagи jannatimsiz, onajonim!

Yig’lanang, sizni yig’latganlar yig’lasin,
Pok qalbingiz tig’latganlar yig’lasin.
Armon bilan to’ldirildi bir armonim,
Jonimdagи jannatimsiz, onajonim!

Xato qilsam to’g’irlagan o’zingiz edi,
Gunoh qilsam, yuvgan o’zingiz edi.
Hali uzoq yashaysan, jon bolam deysiz,
Jonimdagи jannatimsiz, onajonim!

Dunyoda sizdayin topa olmadim,
Qalbim eshigini yopa olmadim.
Uzoq umr ko’ring, siz mehribonim,
Jonimdagи jannatimsiz, onajonim!

TO'YSIZ TOMOSHA

BIR PARDА, TO'RT KO'RINISHLI KOMEDIYA

Qatnashuvhilar:

1. **Norxo'roz** – tovuqxona boshlig'i, 54 yosh
2. **Nortoji** – Norxo'roznning xotini, 49 yosh
3. **Norqo'chqor** – Norxo'roznning yolg'iz (bekorchi) o'g'li, 28 yosh
4. **To'xliboy Qo'yboqarov** – Norxo'rozga quda bo'l mish
5. **Bo'ritosh** – qudaposhsho
6. **Qo'zigul** – ularning erka qizi.
7. **Bo'rivoy** – Norqo'chqorning oshnasi, bo'ydoq.

Birinchi parda
(II-ko'rinish)

To'xliboy Qo'yboqaroving uyi. Keng hovli. Paxsa devorga o'natalgan kattakon temir darvoza pinjida Qo'zigul kuymalanib yuribdi. Parda ko'tarilganda, Nortoji bilan Qo'chqor Qo'zulgulni savolga tutayotgan bo'ladi.

Nortoji: Qizim Bo'ritoshxonning eshigi qaysi bilmaysizmi? Qo'zigul degan qizi ham bor. Tanimaysizmi mabodo?

Qo'zigul: Nima edi? Ishingiz bormidi xola?

(Beixtiyor Qo'zulgulning ko'zi Qo'chqorning oyog'iga tushadi. O'zini tutolmay og'zini qo'li bilan bekitib, kuladi).

Nortoji: Eski hamsoyamiz edi. Qiziltepedan dung ovulga ko'chib ketganidan beri bordi keldi uzilib qolgan. Uyini qidirib kelayotgandik.

Qo'zigul: Shunaqami, men qizi bo'laman.

Nortoji: Tuf-tuf-tuf ko'z tegmasin. Hatto tanimapman ham. Juda chiroqli, ko'hlilik qiz bo'p ketibsan. Bolaligingda seni ko'tarib yurardim, qizim.

Nortoji: Qara, chiroyg'a non botirib yeguday qiz. Men senga aytmovmidim ho'plamay yutvorgudayidan topib qo'yanman, deb. Egniga shunday xonatlas ko'ylagini ilib ko'chaga chiqsang, dushmanlarimiz hasaddan yonib ketadi.

Qo'chqor: (peshonasini tirishtirib) Endi bir kamim ko'chada xotin reklama qilishim qoluvdi.

Qo'zigul: "Tanimasni siylamas", deb bejiz aytishmagan ekan. Men ham tanimapman xola. Qani, uyga kiramiz.

Nortoji: Enang uydami o'zi?

Qo'zigul: Yo'q, ishga ketganiydi xola.

Nortoji: Attang-attang. Biz uzoqdan kelayotgandik-da, qizim. Quruq qaytib ketamizmi ma'nosida o'g'liga boqadi. Qo'chqor bilmadim ma'nosida egnini qisadi. Qo'zigul ichichidan kuladi.

Qo'chqor: Nega kulasiz?
Qo'zigul: Negadir kulgim qistab ketayapti-da.

Nortoji: (Qo'chqorning oyog'iga ko'zi tushib) Voy, o'lmasa-a... Voy sharmanda qilding-ku, bolam.

Qo'chqor: Ha, ena. Men nima qildim?
Nortoji: Oyog'ingga qara, oyog'ingga!
Qo'chqor: (o'ng qo'li bilan so'l qo'li kaftiga mushtlaydi). Eh-h.

(Hamma gur etib kulib yuboradi).

Nortoji: Ko'zing qayoqda bolam. Tufli bilan kalishni oyog'ing farqlamadimi?

Qo'zigul: (hazillashib) Ko'z ko'rмаганини oyoy qayoqdan sezsin, xola?

(Hamma kuladi).

Qo'chqor: Yomon qildingiz lekin, Qo'zixon.
Qo'zigul: Yo'g'-e. Men shunchaki hazillashdim-da.

Nortoji: Endi nima qilamiz-a?
Qo'chqor: Enasi uyda bo'lmasa ketamiz. Nima ham qillardik egasi yo'q uya...

Qo'zigul: Yo'q-yo'q, xolajon, uyga kirib o'tirib tursangizlar. Men darrov chaqrib kelaman.

(Uchalasi birgalashib uyga kiradi. Qiz dasturxon tuzab, oling-oling qiladi. Xushvaqtlik, salom-alik orasida mehmonlarga choy quyib uzatadi. Avval otasining ishxonasi qo'ng'iroq qiladi. Topolmagach, onasinkiga sim qoqadi. Bu orada Qo'chqor qizni yana gapga tutadi).

Qo'chqor: Ha-a, qizlari bo'laman deng. Ismingiz nima xonim?

Qo'zigul: Ismim, ismaloq.
Qo'chqor: Unda otingiz-chi?
Qo'zigul: Otim yo'q, eshagimiz bor.
Qo'chqor: Eshagimiz bor deng. Siz yoman ekansiz-ku.

Qo'zigul: Yaxshi-yomonligimni siz qayoqdan bilasiz.

Qo'chqor: Otingizni aytmayapsiz-ku.

Qo'zigul: Otim, otquloq.

Qo'chqor: Supraquloq emasmi, ishilib?

Qo'zigul: Yo'q, qaynar buloq.

Qo'chqor: Aytaqoling endi.

Qo'zigul: Ha aysam aytqaqolay ismim, Qo'zigul. O'zingizniki-chi?

Qo'chqor: Menikimi, meniki-i... (shiftga qarab) hm-m...

Qo'zigul: (hazillashib) E, hali ismingizni bilmaysizmi nima?

Qo'chqor: Bilaman. Endi men aytmayman.

Qo'zigul: Nima sizni shoxingiz bormi?

Qo'chqor: Norqo'chqorman, Norqo'chqor. Norim bor-u shoxim yo'q.

Qo'zigul: Men shoxi bormikin, deb o'yabman.

Qo'chqor: Shox Qo'zida bo'ladi...

Nortoji: Qo'chqorkal bo'lgach, qo'zi shoxdor bo'ladi-da (kulishadi). Shu payt Bo'ritosh kirib keladi.

Bo'ritosh: Voy o'zimni opajonim keq qoptilar-ku. O'ziyam ming yil bo'ldiyov ko'rismaganimizga, a opa? Yaxshi o'tirbsizmi ishqilib. Bola-chaqa, kelin-ko'pchik, uy ichlarizing tinchmi?

Nortoji: Shukur-shukur o'zlaringiz qanday? Bardam-baquvvatgina bo'lib, yaxshigina ishlab yuribsizmi?

Bo'ritosh: Rahmat opajon, rahmat.) Ukam, (Qo'chqorga yuzlanib) siz yaxshimisz?

Qo'chqor: Rahmat, o'zingiz tuzukmisiz? Oyda-yilda bir bozor, uniyam havo buzar deganday bir izlab kelsak, uydan topib bo'lmaydi. Ey, qoyilmanay sizga. Qizingizdan so'rasak gap xaltasini to'latgani ovga chiqib ketdilar, dedi Ismaloqxonim...

(Bo'ritosh hayron bo'lib Nortojiga o'giriladi).

Bo'ritosh: Opajon, bu yigit sizni o'g'lingizmi, ja-a, sho'x ekanmi deyman.

Nortoji: Sho'xligam gapmi, olov u olov. Oqqina tovuq xirmon sochar, o'z ketini o'zi ochar. Gapi shunaqa buning. Gap-so'zidan shaytonning malayiga o'xshagini bilan o'zi yomon bola emas... Xafa bo'lmayszis-da endi, og'aynichalish.

Bo'ritosh: Opaginam, bu bola ja-a dilijigar chiqib qoldi-yu. Gapi kaltakday...

Nortoji: Ranjimaysizda endi opangiz



Doniyor MIRZO

o'rgilsin. Endi Bo'ritoshxon, shu desangiz, biz qulchilikka keluvdi.

Bo'ritosh: Ey-ha, shunaqami...

Nortoji: Er-xotin dunyo daxmazalari bilan yuraveribmiz-u, o'g'limiz katta bo'p qolganiniyam sezmay qolibmiz.

Bo'ritosh: Demak, sovchilikka keldik deng. Buyog'i qiziq bo'ldi-yu. Men bilan bemaol hazillashib o'tirgan kuyov bo'l mish deng.

Qo'chqor: Shunday-shunday. Xo'p deb qo'yavering. Yo'qsa qizingizni opqochib ketaman.

Bo'ritosh: Og'ir bo'ling bo'z bola, og'ir bo'ling.

Qo'chqor: Shu turishda paypoqsiz to'qson olti kilo chiqaman. Bundanam og'ir bo'lsam ko'plik qilar-ov.

Nortoji: Bo'ritoshxon, ana ko'rdingizmi, buni maqtay desam maqtashga yo'l qoldirmaydi. Hazilni xush ko'radi. Lekin kuyov qilsa arziydi.

Bo'ritosh: Rostdanam ko'ngli ochiqqina serhzil bola ekan.

Nortoji: Nimasini aytasiz. Sho'xligi shirin yigit bu o'zi. O'rgilay Bo'ritoshxon, qizingizni bersangiz mana shunday yigitga berasiz-da. Har qalay bo'y yitgan qizni ushlab o'tirmay vaqtida egalik qilgan yaxshi. Xo'p desangiz, kelishib ikki nonni sindirsak. Tez orada to'y qilib quda-anda bo'lardik.

Bo'ritosh: Opajon men otasi bilan maslahatlashay. Hali qiz tushmagur nima deydi. Uning ko'ngli nimada uni bilaylik. Taqdir nasib, manglayida bo'lsa xo'p-xo'p. Bo'lmasa, dunyoda nima ko'p, qiz ko'p.

(Bo'ritosh mehmonlarni kuzatadi. Ular xayr xo'sh qilib ketishadi).

Davomi bor.

Eshiklar ochiq, lekin...

Vaqt o'tgani sayin inson nimalarnidir yo'qotadi. Bu keyinchalik qaytarib bo'lmaydigan nimalardir. Ammo o'sha nimalardir xotiramizning qaysidir qismida saqlanib o'zimiz bilan qoladi.

"Ortada qoldiradigan uchta narsa bor – fotosuratlarining, kutubxonangiz va shaxsiy qaydlaringiz. Bularning barchasi, albatta, kelajak avlodlar uchun uyingizda o'rnatalgan meboldan ko'ra muhimroqdir", – deydi Jim Ron.

Shunday ekan, keling, endi mavzuga qaytsak. Jumboq tarzida tanlangan bu mavzu meni anchadan buyon yozishga undaydi. Ushbu jumboqli ibora Obiddin Mahmudovning "Farzandnomal" kitobida keltirilgan bo'lib, quyidagi bayon qilingan: "Kitoblarni javoniga terib qo'yan, lekin birontasini o'qimagan kimsaning kim ekanligini bilib olishingiz mumkin. O'qish – bu taqdirning eng ajoyib sovg'asi ekanligini unutmang, chunki bu hammaga ham nasib qilavermaydi. Bolalik paytingizda ilk bora qo'lingizga olgan kitobingizni eslaysizmi? "Alifbe" birinchi hayot kitobidir. Bu siz uchun ochiq turgan birinchi eshikdir. Insoniyat uchun yana bir shunday ochiq eshik borki, u eshik kutubxona eshidir. Albatta, bu eshikdan kiring! Siz kutubxonadagi son-sanoqsiz kitoblarni qo'ga olib, varaqlab o'qib chiqib o'zingizni baxtli his qilishingiz mumkinligini tushinib yetasiz".

Kitob zaminida bir odam borligini unutmastigimiz kerak. Insonning kitobga bo'lgan mehr-muhabbatidan kelib chiqib hurmat qilaylik. Biz yo'qotayotgan va boy berayotgan nimalarningdir biri, shu emasmikan?



Munira RAHIMOVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lim yo'nalishi sirtqi
2-bosqich talabasi,
Axborot bibliografiya xizmati rahbari

Qalam emas, qalb yozgan

Inson fikrlar ekan, bir narsani boshqasiga solishtiradi. Shu tariqa oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratadi. O'z fikrlari bilan bir-biriga o'xshash va takrorlanmas jihatlarni ilg'ay oladi. Mana shu solishtirish jarayonida, timsollı fikrlash dunyoga keladi. Bu timsollar tavsiflanib, yozuvchi tomonidan mukammal asarga aylanadi. Badiiy so'zlar saralanib, adabiy meros yaratiladi va bu insoniyatning ma'naviyatiga xizmat qiladi.

Sizlarni adabiyotimizda yuksak mukofotlarga sazovor bo'lgan asarlar bilan tanishtirishni lozim topdim. Bu kabi asarlarni o'qib, insoniyat so'z san'atini nechog'lik mukammal egallaganiga tasannolar aytasiz. Mazkur mukofotlangan asarlar inson ko'nglini faqat o'ziga qilingizna xos nigoh bilan kashf etolgan. Asarlarda so'z san'ati chinakam badiiylik darajasida bitilgani uchun yuksak e'tirofga sazovor bo'ldi, deyishimiz mumkin. Dunyo adabiyotida sanoqli asarlarga Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Bular: Thokurning "Gitanjali", roman Rollanning "Jan Kristof", Rodje Marti dyu Garning "Tibo oilasi" kabilardir. Tompsonning "Yovvoyi hayvonlar hayoti" Elliot mukofoti, "Shimoliy hayvonlar hayoti" Alanga mukofoti bilan taqdirlangan.

O'zbek adabiyotidagi mukofotlangan asrlar, O'limas Umarbekovning "Xatingni kutaman" yilning eng yaxshi hikoyasi, Asqad Muxtorning "Chinor"i yil romani, Tog'ay Murodning "Otaman qolgan dalalar" asari Abdulla Qodiriy mukofoti, Sharof Boshbekovning "Tushov uzgan tulporlar" asari Respublikalararo g'olib asar, Halima Xudoyberdiyevening "Muqaddas ayol" she'ri Respublika davlat mukofoti, G'afur G'ulomning "Sharqdan kelayotirman" she'ri Davlat mukofoti, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" romani Janni Rodari tahsiniga sazovor bo'lgan asarlardir. Biz sizga ushbu asarlarning zavqli mutolaasini tavsiya qilamiz. Kitoblarni esa har doimgidek Axborot-kutubxona markazimizdan olishingiz yoki buyurtma berishingiz mumkin.



BESH YOSHING MUBORAK, TUMORIM!

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali tashkil etilganligiga o'n to'rt yil bo'libdi. Vaqt suroni oqar daryo misoli tez o'tadi. 2018-yil Esnazar Xalmuratovning tashabbusi bilan bir guruh havaskor talabalarning ijod ishtiyogi natijasi bo'lgan "Tumor" raqs ansambl besh yoshga to'ldi. 2018-yil 16-noyabr kuni Nukus shahridagi Bolalar musiqa va san'at maktabida ansamblning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Yaqinda 5 yoshli Tumorimizning yubiley konserti katta shodiyona bilan o'tkazildi. Kirish so'zini filial direktori, filologiya fanlari nomzodi Amanjol Ayapov oshib berdi.

Alfiya NAZAR,
O'zDSMI Nukus filiali "Teatrshunoslik" yo'nalishi talabasi

Filial konsert zalining pardasi ochildi. Ansambl ixlosmandlari har bir raqsni o'zgacha qarsaklar bilan kutib oldi. Xalqimiz tomonidan yaratilgan va saqlangan nafis, umrzoq raqs namunalari ansambl repertuarining bisotidan o'rinn egallagan. Nazm va navoning payvand eshitilishi, inson qalbiga his berishi natijasida yaxlit raqs unsurlari yuzaga kelganini payqash mumkin. Tasarrufimizdagi raqlarlarni ko'rib, qo'shiqning kuy birla, mo'jizani mo'jizaga vobasta etib, badiiy rahbar mehnati esa, ikki karra mo'jizaning tasavvufiga sabab bo'lgan, deysiz. Albatta, ansambl a'zolarining raqlarida mahoratning sir-asrori teran ochilgan. Raqsning sehru sinoati mag'iz-mag'izgacha, qilni qirq yoradigan ustoz mehnati natijasida, charxlanganligi raqs ishqibozini beixtiyor sahnadagi raqsga oshufta qiladi. Bekamu ko'st milliy raqlar nafosat shaydolarini ohangrabodek o'ziga tortib ketadi. O'zgacha ilhom in'om etadi. Havaskor raqs ijrochilarining professionallashuvga intilishi raqsning niyoyatda nozik me'yori tanlanganini, talabalar ifodasidagi dardu nola, faryodu fig'on bir zarb va bir nafasdag'i beqarorlik emas, barqarorlikka yo'rg'alanib ketadi. Bu degani talabalarning kunduzi ham, kechasi ham yolchitib ijod qilgani sabab, o'zlarining barcha qirralarini to'liq oshib, hayratmuz zavq bera oldi. Barakalla! Besh yoshing muborak, Tumorim!

Endi badiiy rahbarga tasanno aytishga intildik. Bu jilokor ziynatlarni, mashaqqatu zahmatlar bilan ilinj qilgan, ko'p va xo'p ijod qilgan, "Madaniyat va san'at fidokori" (2022) ko'krak nishoni egasi Xalmuratov haqida dildan tilga toshib chiqadigan so'z qalamidan dasturxon yozsak.

Xalmuratov Toshkent davlat madaniyat

Muassis:
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Ma'rufjon YO'L DOSHEV

Tahir hay'ati:
Sobirjon JUMAYEV
Hamdam ISMOILOV
Mas'ul kotib:
Ozoda SHOBİLOLOVA
Sahifalovchi:
Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

www.dsni.uz;
nashriyot@dsni.uz

Jon GOLSUORSI:

Yozuvchilar va islohotchilar mukofot olmasliklari kerak

Angliya hamda Shotlandiyadagi o'nlab universitetlarning faxriy unvonlariga sazovor bo'lgan adib "yuksak darajada hikoya qilish mahorati" uchun berilgan Nobel mukofotining o'sha davr uchun juda katta bo'lgan pul mablag'ini o'zi tashkil etgan Pen-klubga beg'araz taqdim etdi. Bunga qadar esa Golsuorsi faxriy ritsarlik unvonidan ham voz kechgandi. Zero, Golsuorsi yozuvchilar va islohotchilar mukofot olmay ishlashlari kerak, degan prinsipiqa sodiq edi.

Bundan tashqari nosir, dramaturg, shoir Golsuorsi (1867-1933-yillar, Buyuk Britaniya) asarlari chop etilishidan tushgan daromadning teng yarmini xayriyaga sarflardi. Shuningdek, yozuvchi umr bo'yi ijtimoiy islohotlar, chunonchi, senzura haqidagi qonunni qayta ko'rib chiqish, eng kam ish haqi miqdorini oshirish, ayollarga saylov huquqi berish tarafdoi bo'ldi. Adib o'quvchi yuragiga yo'l "hayotni o'zing ko'rayotganday, haqqoniy va mukammallikka intilib tasvirlashda", deb hisoblardi. E'tirof etaylik, Golsuorsi bu yo'lni topdi.



Uning ijodi, hatto, Buyuk Britaniya bosh vaziriga katta ta'sir ko'rsatdi, ya'ni Golsuorsining bir kishilik bandixona uqubatlari tasvirlangan "Adolat" nomli pyesasini o'qib chiqqan Uinston Cherchill qamoqxonalar bo'yicha jiddiy islohotlar o'tkazdi.

Hayoti mobaynida 20 ta roman, 27 ta pyesa, 3 ta she'rlar to'plami, 200 yaqin hikoyalarini chop ettirgan. Birinchi jahon urushi davrida o'z ixtiyoriga ko'ra, Fransiyadagi harbiy gospitalda oddiy sanitar bo'lib ishlagan yozuvchining xokini ingliz adiblari jamiyatni Vestminster abbatligining mashhur adiblar abadiy qo'nim topgan Shoirlar burchagiga dafn etish iltimosi bilan chiqdi. Biroq abbatlik bosh ruhoniysi bu taklifga ko'nmadni. Cherkov shu yo'l bilan o'zini tanqid qilgan qalamkasdan o'ch oldi. Ana shunda Jon Golsuorsining "Xokimni shamolda to'zg'iting!" degan mashhur she'ri yodga tushdi va adibning xoki o'ynoqi shamollar bag'ridagi yuksak tepalikdan, ayrim manbalarda samolyotdan sochib yuborildi.

Xudo uchun haq to'lamaganman

Italiyada 93 yoshli qariya kasallikdan tuzalibdi. Undan sun'iy nafas berish moslamasining hech bo'limasa bir kuni uchun haq to'lashini so'rashibdi. Shunda chol yig'lab yuboribdi. "Balki puli yo'qligi tufayli ko'z yoshi to'kayotgandir", degan xayolga borib, tinchlantrishga uringan shifokorni esa qariyaning javobi hayratga solibdi:



"Men to'lashim kerak bo'lgan pul uchun yig'lamayapman. Mablag'im etarli, hammasini to'lashim mumkin. Yig'layotganimning boisi, meni 93 yildan buyon Xudo nafaslantiradi, lekin biror marta buning uchun haq to'lamaganman. Siz bo'lsa, bir kunlik nafaslantirish uchun 5000 evro so'rayapsiz. Tasavvur qilyapsizmi, Yaratganga qancha to'lashim kerakligini?! Menga alam qilayotgani, meni bir umr nafaslantirgani uchun Yaratganga bir marta ham shukrona qilmagan ekanman!"

xorij manbalari asosida
"Grim san'ati" yo'nalishi 3-bosqich talabasi
Mohinabonu RASULOVA tayyorladi

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi.
O'chami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Nuxsasi – 250 dona. Narxi kelishilgan holda.
Chop etishga 20.03.2023-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxtaga olingan.

Manzil: Navoiy ko'chasi 30-yu.